

VAVILOV SOYA NAVINING O'SISHI, RIVOJLANISHI VA POYA YARUSLARIDA DUKKAK SONINING SHAKLLANISHINI KUZATISH

Toshmurodova Iroda

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11396873>

Annotatsiya. Ushbu maqola Soya o'simligining biologik tuzilishi, turlari va Vavilov soya navining o'sishi, rivojlanishi va poya yaruslarida dukkaklar sonining shakllanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Vavilov navi, *Glycine*, *Glycina hispida* Moench, *Glycina ugguriensis* Rgl, dukkak.

OBSERVATION OF THE GROWTH, DEVELOPMENT AND FORMATION OF NUMBER OF PODS IN THE STEM LAYERS OF THE VAVILOV SOYBEAN VARIETY

Abstract. This article provides information on the biological structure of the soybean plant, its types, and the growth, development, and number of pods in the stem layers of the Vavilov soybean variety.

Key words: Vavilov variety, *Glycine*, *Glycina hispida* Moench, *Glycina ugguriensis* Rgl, legume.

НАБЛЮДЕНИЕ ЗА РОСТОМ, РАЗВИТИЕМ И ФОРМИРОВАНИЕМ КОЛИЧЕСТВА СТРУЧКОВ В СТЕБЛЕВЫХ ОТВОДКАХ СОРТА СОИ ВАВИЛОВ

Аннотация. В статье приведены сведения о биологическом строении, видах и росте сорта сои Вавилов, а также формировании количества стручков в слоях стебля.

Ключевые слова: сорт Вавилов, Глицин, *Glycina hispida* Moench, *Glycina ugguriensis* Rgl, бобовые.

Soya bir yillik o'tsimon o'simlik. Soya *Glycine* avlodiga va dukkaklilar oilasiga mansub bo'lib, 70 dan ortiq turi bor. Shunda eng ko'p uchraydigan turi *Glycina hispida* Moench va yovvoyi soya *Glycina ugguriensis* Rgl. Biz ushbu maqolada soyaning botanik belgilarini asosan o'rganilayotgan Vavilov navida olib bordik va shu navni belgilarini yoritdik. Vavilov navining ildizlari yerga kirib borish chuqurligi doimo nisbiy bo'lib qoladi. Ildizlarni tuproqda yaxshi joylashishi uchun bevosita va bilvosita omillar bor. Ko'pgina o'simliklar kabi soyaning poyasi past bo'yli bo'lsa ildizlari chuqur kirmaydi S. Boroevicha [1]. Gultojibarglari oq yoki binafsha rangda bo'lib, eng yuqori gultoji bargi yelkan deb ataladi. Ikki yon tomondagi gultoji bargiga

qanot, ikki pastki barglarga esa qayiq deb ataladi. Yelkan deb ataluvchi gultoji bargning rangi qanot va qayiqcha gultoji barglariga qaraganda to‘qroq, hajmi katta, 7-10 millimetrni tashkil etadi. Soya gullari o‘ziga xos bo‘lib, ochilgan hamma guli dukkak xosil qilmaydi. Gul bo‘lib ochilib urug‘lanmasdan to‘kilib ketadigan gullar barg qo‘ltiqlarida 79-93,5 foyizni tashkil etadi. Urug‘lanib ammo to‘lishmay qolgan dukkaklar miqdori navlarga qarab 12-60 foyizgacha bo‘lishi mumkin. Dukkak bo‘lib pishib yetilmay to‘kilib ketadigan dukkakchalar vegetatsiya davrida 25-52 foyiz gacha bo‘ladi. Navlarga qarab to‘la yetilgan urug‘ xosil qiluvchi dukkaklar koefitsienti 75,8 - 94,8 foyiz ekanligini kuzatishlardan ma‘lum bo‘ldi. D. Yormatova ma‘lumotiga ko‘ra, ayrim soya navlarida bor yo‘g‘i 50-60% gullar dukkak xosil qiladi va pishib yetiladi.

Tajribada Vavilov nomli istiqbolli nav sifatida respublika Nav sinash komissiyasining Davlat Reestriga kiritilgan o‘rtapishar don uchun yetishtiriladigan navi o‘rganildi.

Vavilov navi O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universitetida yartilgan o‘rtapishar (navning mualliflari : D.Yormatova, X.Xushvaqtova .M.Xamroeva va boshqalar bo‘lib 2022 yil istiqbolli nav sifatida Davlat Reestriga kiritildi. Vavilov o‘rtapishar nav. Bo‘yining balandligi 105-115 sm.gacha bo‘ladi, barglari uchtalik, rangi to‘q yashil tusda. Pastki dukkaklari yerdan 12-16 sm. balandlikda joylashgan. Shoxlanishi o‘rtacha, barglari juda ko‘p, guli oq shingil, dukkaklarining uchi o‘tkir, doni sariq, urug‘ kindigi yoki rubchigi yaxshi ko‘rinib turadi, unda ba‘zan qora dog‘lari ham uchraydi. 1000 dona urug‘ining og‘irligi 130-160 gramm keladi. Pishgan vaqtda dukkaklari yorilib ketmaydi. Donining tarkibida 23-24% moy, 38-40% oqsil bo‘ladi. Bu navning bir yaxshi xususiyati shuki, ekish muddati kechiksa, o‘sov davrini qisqartiradi. O‘simliklarning rivojlanishiga turli omillar - nav xususiyatlari, tuproq va ob-havo sharoiti, yetishtirish texnologiyasi ta‘sir qiladi.

I.F. Belikova [2], T.A. Vasilev fikriga ko‘ra soya navlarida barg yuzasi indeksi 4-5 m²/m² (ili 40-50 t^{ys}. m²/ga) optimal xisoblanadi. Ikkinchi olim I.P. Xolupenko [3] fikricha gektaridan 18-20 s/ga soya doni olinganda soyaning barg sathi taxminan 40-50 t^{ys}. m²/ga lozim. Agarda xosil gektaridan 15-20 s/ga barg sathi bir gektarda 25-35 t^{ys}. m²/ga bo‘lsa ishonarli bo‘ladi.

Ammo M.S. Kuzmin [4] fikricha, ayrim navlar serbarg bo‘lishi mumkinva ularda dukkaklar kam bo‘lgan holatlar ham uchraydi. Oraliq poyada dukkaklar bilan bir qatorda shakli birmuncha kichik barglar hosil bo‘ladi. Tugallangan poyada esa dukkaklar bilan yirik barglar bir xil balandlikda joylashadi. Dukkaklar pisha boshlaganda o‘simlik poyasi sariq, qo‘ng‘ir yoki malla tusga kiradi. O‘tkazilgan tajribalardan shu narsa ma‘lumki, o‘simlikning past bo‘lishi soya urug‘larining yirik yoki mayda bo‘lishiga mutlaqo ta‘sir ko‘rsatmaydi. Soya o‘simligining qurg‘oqchilikka chidamliligi to‘g‘risidagi har-xil qarashlarni V.B.Enkin [5, 25-30-b] shunday tushuntiradi: “ma‘lumotlar har-xil iqlim sharoitlarida olinganligi, o‘simlikning rivojlanish

fazalarini hisobga olinmaganligi” – deydi. Krasnodar o‘lkasida o‘tkazilgan ko‘p yillik olib borgan tajribalar natijasiga ko‘ra, soya o‘simligi qurg‘oqchilikka o‘rtacha chidamli hisoblanadi. Soya o‘simligining qurg‘oqchilikka nisbatan chidamliligi V.Zaveryuxin [6] va boshqalarning ilmiy maqolalarida ham qayd qilingan.

Soya navlaridan yuqori hosil uchun avvalo, ularning ma‘lum tuproq iqlim sharoitiga mosligini aniqlab olish zarur, deb yozadi D.Yo.Yormatova va G.N.Tangirova [7] Ushbu olimlarning yozishicha, eng ma‘qul deb tanlangan muddatda soya urug‘larining unib chiqishi uchun tuproqda issiqlik, namlik va havo rejimlari qulay bo‘lishi kerak. Qulay rejimda ekilgandagina o‘simlik biologik jihat ma‘lum sharoitga tez moslashadi. Soyachilikning otasi hisoblangan V.B.Enkenning izlanishlarida oddiy ekish muddatida soya navlarni unib chiqib pishib yetilishigacha bo‘lgan davrda lozim bo‘lgan effektiv harorat yig‘indisi ultra ertapishar navlar uchun – 1700-1900 °S, ertapishar navlar uchun - 2000-2200, o‘rtapishar navlar uchun -2600-2700, va kechpishar navlar – 3000-3200 °S foydali harorat yig‘indisini talab qiladi. [8].

Xulosa

1. Vavilov navida pastki barglari mayda poyaning yuqorisiga qarab barg sathi yiriklashib bordi. Barg sathi, sug‘orish soniga qarab o‘zgarib borganligi ma‘lum bo‘ldi

2. Vavilov navida barglarning yuza qismi tuk bilan zich qoplangan bo‘lib. barglarning dominant belgisi shundaki, dukkaklar pishib yetilishi bilan sarg‘ayib birin-ketin tabiiy ravishda to‘kilib ketdi.

3. Ushbu navda pastki dukkaklarning joylashish balandligi ham nav xususiyatlari va iqlim sharoitlariga qarab o‘zgarib boradi. Birinchi dukkaklar yerdan 12-15 santimetr balandlikda joylashdi. Barg qo‘ltig‘ida xosil bo‘lgan dukkaklar 8-12 tagacha ekanligi dominant belgi sifatida kuzatildi.

4. Biometrik o‘lchashlarni 1 avgustda davom ettirganimizda ma‘lum bo‘lishicha, uch marta sug‘orilgan variantda Vavilov navining bo‘yining balandligi 67,4 sm, to‘rt marta sug‘orilganda poyaning balandligi 78,7 va besh marta sug‘orilgan variantlarda 88, 9 sm. tashkil qildi. Shuningdek, uch marta sug‘orilgan variantda besh marta sug‘orilganga qaraganda 21,5 sm ga o‘simlik bo‘yi yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

REFERENCES

1. Yormatova D. Soya – dehqonchilikdagi eng muhim ekin. // Barqaror taraqqiyot. 2014 y. Ekobarqaror.
2. Беликова И.Ф. [26], Распределение продуктов ассимиляции у сои в онтогенезе. Физиология сои и картофеля на Дальнем Востоке. – М.: Колос.2002.- 61 с

3. Холупенко I.P. Effektivnost primeneniya udobreniy pod soyu na chernozemnykh pochвах lesostepi Zapadnoy Sibiri/ Xramsov I.F., Voronkova H.A., Kozlova T.YaL Agroximiya.- 2001.- № 2.- S. 36-39
4. Кузьмин М.С. [77]
5. Момот Я.Д. Семена и посев сои. М.-Л.: Сельхозгиз. 1932.
6. Заверюхин Б.И., Ливановский И.Л., Капшай Н.Г. – Полив и удобрения. // Ж. Масличные культуры. 1984, № 1. –25с. .
7. Yormatova D. Soya – dehqonchilikdagi eng muhim ekin. // Barqaror taraqqiyot. 2014 y. Ekobarqaror.
8. Заверюхин Б.И., Ливановский И.Л., Капшай Н.Г. – Полив и удобрения. // Ж. Масличные культуры. 1984, № 1. –25с